



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi

**VOLUME 4
ISSUE 1**

2023



TIL, TA'LIM, TARJIMA

1-SON, 4-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-1, ВЫПУСК-4

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

VOLUME-4, ISSUE-1



TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

1-SON,(2023) DOI <https://zenodo.org/record/8379866>

Bosh muharrir:

Mirzayev Ibodulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Ismoilov Salohiddin
f.f.n., professor (O'zbekiston)

TAHRIR HAY'ATI:

Boqiyeva Gulandom f.f.d., professor (O'zbekiston)	Bakirov Poyon f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla f.f.d., professor (O'zbekiston)	Pardayev Azamat f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy p.f.d., professor (O'zbekiston)	Xayrullayev Xurshid f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja f.f.d., professor (O'zbekiston)	Kiselyov Dmitriy f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Mamatov Abdi f.f.d., professor (O'zbekiston)	Labib Said Mohammad Alem f.f.d., dotsent (Afg'oniston)
Safarov Shahriyor f.f.d., professor (O'zbekiston)	Mirzayev Rahmatulla yu.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Shahobiddinova Shohida f.f.d., professor (O'zbekiston)	Sobirov Anvar PhD (O'zbekiston)
Qulmamatov Do'smamat f.f.d., professor (O'zbekiston)	Nadim Mohammad Humoyun PhD (Afg'oniston)
Mirzohidova Muyassar f.f.d., professor (Qirg'iziston)	Ubaydullayeva Maftuna PhD (O'zbekiston)
Uluqov Nosirjon f.f.d., professor (O'zbekiston)	Isakova Nodira f.f.n. (O'zbekiston)
Eltazarov Jo'liboy f.f.d., professor (O'zbekiston)	Qodirova Barno kotib, PhD (O'zbekiston)
Umurqulov Bekpo'lat f.f.d., professor (O'zbekiston)	Xasanov Axmad mas'ul kotib, (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KEMGASHI:

To'xtasinov Ilhom p.f.d. (O'zbekiston)	Karimov Suyun f.f.d., professor (O'zbekiston)
Raximov G'anisher f.f.d., professor (O'zbekiston)	Mo'minov Siddiq f.f.d., professor (O'zbekiston)
Saidov Sa'no f.f.n., dotsent (Uzbekistan)	Mamatov Abdug'ofur f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat f.f.d., professor (O'zbekiston)	Suvonova Nigorabonu f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Turniyozov Ne'mat f.f.d., professor (O'zbekiston)	Mukhametkaliyeva Gulnar f.f.n. (Qozog'iston)
Irisqulov Muhammadavaz f.f.d., professor (O'zbekiston)	Saidov Sa'no f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Berdaliyev Abduvali f.f.d., professor (Tojikiston)	
Sayfullayeva Ra'no f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Djusupov Maxanbat f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Jabborov Xo'jamurod f.f.d., dotsent (O'zbekiston)	
Abdiyev Murodqosim f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Yoqubov Jamoliddin f.f.d., professor (O'zbekiston)	

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-1, (2023) DOI <https://zenodo.org/record/8379866>

Главный редактор:

Мирзаев Ибадулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Исмаилов Салахиддин
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бакиева Гуландом д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Бакиров Поён д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Пардаев Азамат д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Йулдашев Казакбай д.п.н., профессор (Узбекистан)	Хайруллаев Хуршид д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Киселев Дмитрий д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Маматов Абди д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Лабиб Саид Моҳаммад Алем д.ф.н., доцент (Афганистон)
Сафаров Шахриёр д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Мирзаев Раҳматулла д.ю.н., доцент (Узбекистан)
Шахабиддинова Шахида д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Собиров Анвар PhD (Узбекистан)
Кулмаматов Дусмамат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Надим Моҳаммад Хумоюн PhD (Афганистон)
Мирзахидова Муяссар д.ф.н., профессор (Киргизистан)	Убайдуллаева Мафтуна PhD (Узбекистан)
Улуков Насиржан д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Исакова Нодира д.ф.н. (Узбекистан)
Элгазаров Жулибай д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Кадирова Барно секретарь, PhD (Узбекистан)
Умуркулов Бекпулат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Хасанов Ахмад отв. секретарь (Узбекистан)

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Тухтасинов Илхам д.п.н., профессор (Узбекистан)	Каримов Суюн д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахимов Ганишер д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Муминов Сиддик д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Саидов Саъно к.ф.н., доцент (Узбекистан)	Маматов Абдуғафур д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакоева Мухаббат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Сувонова Нигорабону к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Турниязов Нетьмат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Мукхамметкалиева Гульнар к.ф.н. (Казакстан)
Ирискулов Мухаммадаваз д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Бердалиев Абдували д.ф.н., профессор (Таджикистан)	
Сайфуллаева Раъно д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Джусупов Маханбат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Жаббаров Хужамурад д.ф.н., доцент (Узбекистан)	
Абдиев Муратқасим д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Якубов Жамалиддин д.ф.н., профессор (Узбекистан)	

Вёрстка: Шахрам Файзиёв

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

ISSUE-1 (2023) DOI <https://zenodo.org/record/8379866>

Chief Editor:

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scienc.,
prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

Ismailov Salokhiddin
Cand. of phil. sciences, assistant
professor (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD:

Bakieva Gulandom
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Yuldashev Kazakbay
Doc. of ped. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Rasulov Ravshankhuja
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Mamatov Abdi
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Safarov Shakhriyor
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Shakhobiddinova Shokhida
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Kulmamatov Dushmanat
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Mirzokhidova Muyassar
Doc. of phil. scienc., prof.
(Kirghizistan)

Ulukov Nosirjon
Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)

Eltazarov Juliboy
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Umurkulov Bekpulat
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Bakirov Poyon
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Pardaev Azamat
Doc. of phil. scienc., assoc. prof.
(Uzbekistan)

Khayrullaev Khurshid
Doc. of phil. scienc., assoc. prof.
(Uzbekistan)

Kiselyov Dmitriy
Doc. of phil. scienc., assoc. prof.
(Uzbekistan)

Habib Said Mohammad Alem
doc. of phil. scienc.
(Afg'oniston)

Mirzaev Rahmatulla
Doc. of jurispr. scienc., assoc. prof.
(Uzbekistan)

Sobirov Anvar
PhD
(Uzbekistan)

Nadim Mohammad Humoyun
PhD
(Afg'oniston)

Ubaydullayeva Maftuna
PhD
(Uzbekistan)

Isakova Nodira
Doc. of phil. scienc.
(Uzbekistan)

Kadirova Barno
Secretary, PhD
(Uzbekistan)

Hasanov Ahmad
senior secretary
(Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

Tukhtasinov Ilhom
doc. of ped. scienc.
(Uzbekistan)

Rakhimov Ganisher
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Saidov Sano
Cand. of phil. sciences, assoc. prof.
(Uzbekistan)

Bakaeva Mukhabbat
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Turniyazov Nemat
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Iriskulov Mukhammadavaz
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Berdaliev Abduvali
Doc. of phil. scienc., prof.
(Tajikistan)

Sayfullaeva Rano
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Djusupov Makhanbat
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Jabborov Khojamurod
Doc. of phil. scienc., assoc. prof.
(Uzbekistan)

Abdiev Murodkosim
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Yakubov Jamoliddin
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Karimov Suyun
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Muminov Siddik
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Mamatov Abdugafur
Doc. of phil. scienc., prof.
(Uzbekistan)

Suvonova Nigorabonu
Cand. of phil. sciences, assoc. prof.
(Uzbekistan)

Mukhametkaliyeva Gulnar
Cand. of phil. sciences
(Kazakhstan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

T I L S H U N O S L I K

1.Ш.Ш. Жалмаханов, Ш.К. Жаркынбекова, Б.И. Кодирова. ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕЙ ЛЕКСИКИ КАЗАХСКОГО И ТУВИНСКОГО ЯЗЫКОВ В СРАВНИТЕЛЬНОМ АСПЕКТЕ.....	7
2.Rashidova U. FRAZEOLOGIZMLAR SHAKLLANISHINING LISONIY OMILLARI.....	21
3.Maxammadiyev X. ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SINTAKTIK USUL BILAN YASALGAN MAISHIY LEKSEMALAR.....	29
4.Usmanov F. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVOMADANIY KONTSEPT VA QADRIYAT MUAMMOSI.....	35
5.Anorqulova O. KONSEPT VA KONSEPTOLOGIYA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.....	44
6.Musulmonova K. SHAXSNI OBRO'SIZLANTIRISH MAZMUNLI MATNLARNI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHNING QONUNIY METODOLOGIK ASOSLARI.....	52
7.Kurbanazarova N. O'ZBEK TILIDA MUQOBILSIZ LEKSIKA VA UNING TURLARI.....	59
8.Sariyev Sh. KULOLCHILIK TERMINLARINING KO'P MA'NOLILIKKA MUNOSABATI.....	67
9.Dautova M. MODA SOHASIDA AMAL QILADIGAN NEOLOGIZMLARNING NOMINATIV TAVSIFI.....	76

T A' L I M S H U N O S L I K

10.Ubaydullayev N. BIOGRAFIK METODNING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	87
11.Raxmatova D. SAIDRIZO ALIZODANING TIL TA'LIMI HAQIDAGI QARASHLARI.....	97
12.Ibrohimova O. XALQARO INGLIZ TILI O'QITISH DASTURLARI VA ULARNING UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI.....	105

T A R J I M A S H U N O S L I K

13.Kuvanova Sh. FRANS KAFKA ASARLARI TARJIMASIDAGI YOLG'IZLIKKA MAHKUM INSON OBRAZINING TALQINI VA TASAVVURIDAGI DUNYO KARTINASI.....	114
14.Панжиева Н КОГНИТИВНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ АНТИТЕЗЫ В РОМАНЕ У.С.МОЭМА "THE MOON AND SIXPENGE" (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА).....	122

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Rahmatova Dilafro'z

(PhD) O'qituvchi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Samarqand, O'zbekiston

rahmatovadilafroz2@gmail.com

SAIDRIZO ALIZODANING TIL TA'LIMI HAQIDAGI QARASHLARI

 <https://zenodo.org/record/8379654>

ANNOTATSIYA

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy vazifalaridan biri xalqni ma'rifatga chorlash va usuli savtiya maktablarini tashkil etishdan iborat edi. Saidrizo Alizoda ana shunday ma'rifatparvar jadidlardan bo'lib, u Samarqandda nafaqat yangi maktab ochganligi, balki o'quvchilar uchun darsliklar tuzib, bepul tarqatganligi bilan diqqatga sazovordir. Adib tomonidan tuzilgan darsliklar boshlang'ich sinf o'quvchilari idroki uchun qulay va sodda hisoblanadi. Darsliklar arab grafikasi asosida dastlab qo'lyozma shaklida o'qitilgan bo'lsa-da, keyinchalik toshbosma usulida ommalashgan. Ushbu maqolada "Birinchi yil. Alifbe" hamda "Murosalo" darsliklari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada tinish belgilarining taraqqiyot bosqichi, darsliklarda ulardan foydalanish tartibi, ayrim grammatik qoidalarining yozilishi haqida ma'lumotlar bor.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadid, Murosalo, Alifbe darsligi, matbuot, matbaa, usuli savtiya maktabi, sarf, nahv.

Рахматова Дилафруз

(PhD) Преподаватель

Самаркандского государственного

института иностранных языков

Самарканд, Узбекистон

rahmatovadilafroz2@gmail.com

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕТКИ ОБ ИЗУЧЕНИЮ ЯЗЫКА САИДРИЗО АЛИЗАДЕ

АННОТАЦИЯ

Во второй половине XIX века, в начале XX века одной из главных задач зародившегося в Туркестане движения джадидизма был призыв народа к просвещению и организация школ метода Савтия. Саидризо Ализода - один из

тех просвещенных первооткрывателей, который известен не только открытием новой школы в Самарканде, но и созданием учебников для учащихся и их бесплатной раздачей. Учебники, созданные им, легки и просты для учащихся начальной школы. Учебники на основе арабской графики сначала преподавались в виде рукописей, но позже стали популярны в виде литографии. В статье упоминаются учебники "Первый год. Алифбе" и "Мурасалот". В статье также содержится информация об этапе развития знаков препинания, порядке их использования в учебниках, написании некоторых грамматических правил.

Ключевые слова: Туркестан, Джадид, Переписка, Алфавитный учебник, печать, типография, школа усули Савтия, сарф, нахв.

Rakhmatova Dilafuz
(PhD) Teacher

Samarkand state institute of foreign languages
Samarkand, Uzbekistan
rahmatovadilafuz2@gmail.com

THOUGHTS ABOUT LANGUAGE EDUCATION OF SAIDRIZO ALIZADE

ABSTRACT

In the second half of the 19th century, at the beginning of the 20th century, one of the main tasks of the Jadidism movement that originated in Turkestan was to call the people to enlightenment and organize schools of the Savtiya method. Saidrizo Alizoda is one of those enlightened pioneers who is known not only for opening a new school in Samarkand, but also for creating textbooks for students and distributing them for free. The textbooks created by Adib are easy and simple for elementary school students. Textbooks created by Adib are easy and simple for elementary school students. Textbooks based on Arabic script were first taught as manuscripts but later became popular as lithographs. In the article "First year" the textbooks "Alifbe" and "Murasalot" are mentioned. The article also contains information about the stage of development of punctuation marks, the order of their use in textbooks, and the writing of some grammar rules.

Keywords: Turkestan, Jadid, Correspondence, Alphabet textbook, printing, printing house, Usuli Savtiya school, sarf, Nakhv.

Samarqand jadidchilik maktabining yorqin namoyandasi Saidrizo Alizodadir. Saidrizo Alizoda 1887-yilda Samarqandda hunarmandar oilasida tavallud topgan. Otasi Hoji Mir Maxsus asli eronlik bo'lib, davlatlararo savdo-sotiq natijasida Samarqandga ko'chib kelgan. Saidrizo madrasalarda tahsil olgach, Demurov bosmaxonasiga harf teruvchi bo'lib ishga joylashadi. Ana shu kasb Saidrizo Alizodani adabiyotga, matbuotga oshno etadi. U o'zbek, tojik, rus tillarida matbuotga xat, maqola yozib turadi. "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnalining yaratilishi va keyingi rivojida xizmatlari katta.

"Sharq" gazetasida muharrir, "Hurriyat" gazetasida tarjimon va muxbir, "Zarafshon" gazetasida bo'limga mudirlik qiladi, "Ovozi tojik" gazetasi asoschilaridan biri bo'lgan. Fors-tojik tillarida nashr etilgan, adadi 4 ming nusxaga yaqin bo'lgan "Sharq mash'ali" nomidagi haftalik jurnal tashkil etadi. Ushbu jurnal O'rta Osiyo, Kavkazortidan tashqari, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston va bir qancha arab mamlakatlariga tarqalgan edi.

Saidrizo Alizoda tanqidiy maqolalari, fel'etonlariga Bahlul, Zambur, Ranjbar, Bog'ishamoliy, Shapaloq, S.A. kabi taxalluslari ostida "Turkiston viloyatining gazetasi", "Kambag'allar o'qi", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Buxoroi Sharif", "Turon" gazetalari, "Mashrab", "Mulla Mushfiqiy" jurnallarida chiqish qilgan.

S.A. imzosi bilan samarqandlik jadidlar Saidrizo Alizoda hamda Sadridin Ayniy ijod qilgani ma'lum. Davr matbuoti maqolalari yuzasidan tahlil o'tkazib, *عليزاده رضا سيد*, ya'ni, *ع.ص.* bilan yozilgan bo'lsa, Saidrizo Alizodaga tegishli, *عيني الدين صدر*, ya'ni, *ع.ص.* bilan yozilgan bo'lsa Sadridin Ayniyga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Undan tashqari maqolalar tili, uslubiy va mavzuiy ko'rinishlari orqali qaysi jadid qalamiga mansub ekanligini aniqlash imkoni ham bor.

Saidrizo Alizoda Samarqanddagi Bog'ishamol tumanida jadid maktabi ochib, o'n bitta darslik tuzgani haqiqiy millatparvarlik nishonasi edi. Ular orasida hozirda Saidrizo Alizoda uy-muzeyida saqlanib qolganlari va faqatgina nomlari adabiyotlarda qayd etilganlari bor.

Saidrizo Alizoda ko'plab badiiy, diniy, ilmiy, falsafiy asarlar muallifi va tarjimoni bo'lib, tadqiqotchilar fikricha asarlarining soni 500 tadan ortiq. Adib asarlarining mazmun va mundarijasini uch xil ilmiy tasnif asosida o'rganish tavsiya etilgan:

1. Badiiy asarlar. Saidrizo Alizoda qomusiy bilimlar egasi bo'lib, u turli xil badiiy, diniy, ilmiy-falsafiy mavzularga oid asarlar yozgan. "Asri saodat", "She'ri zindoni" va tarqoq she'rlar shular jumlasidandir.

2. Diniy va ilmiy-falsafiy asarlar. "Nizomnoma", "Risalat ul-Ittihodiya", "Vojiboti diniya", "Ta'rixi Islom", "Madaniyati Islom", "Zaruriyati Islomiya", "Ilmi fazo" va boshqalar.

3. O'quv darsliklari. Saidrizo Alizoda birinchilardan bo'lib avval jadid maktabi va madrasalar uchun keyin esa yangi davr o'rta maktab va oliygohlari uchun o'quv darsliklari yozgan. Maktab va madrasalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Birinchi yil. Alifbe" kitobi, "Alifboi turki", "Hosilot kitobi, fors-tojik tilida yozgan "Soli naxustin", "Sarfuh nahvi tojiki", "Sarfuh nahvi arabi", "Sarfuh forsi", "Dabistoni tojik", "Ilmi fazo" va boshqa asarlar yozib shu davr o'quvchilariga tarqatgan.

4. Tarjimalari. Saidrizo Alizoda jahon yozuvchilari va mutafakkirlari asarlarini tarjima qilib, o'zbek tili leksik qatlamining boyishiga samarali hissa qo'shgan [1, B. 7]. Professor G'aybulla as-Salom Saidrizo Alizoda haqida yozar ekan: "bosmaxonada oddiy harf teruvchidan - maktabdorlikkacha, mug'anniylikdan - muharrirlikkacha, lug'atshunoslikdan - shoirlikkacha juda ko'p ilmu hunarni bilgan, yorqin iste'dod sohibi bo'lib tanilgan. Tabiiy fanlarda ham xizmatlari bor. Hisob arifmetika darsligini yaratgan. Keyinchalik riyoziyot darsligi "Hosilotni" chop ettirgan", [2, B. 2] deb yozadi.

"Oyina" jurnalning 1914 yilgi 35-sonida "Har millat o'z tili ila faxr etar" nomli maqolasida Saidrizo Alizodaning til haqidagi qarashlari namoyon bo'ladi. 14 tilni mukammal biladigan poliglot sifatida olim tillarni o'rganishni targ'ib qiladi. Ayni paytda, har bir millat o'z tilini himoya qilish bilan shug'ullanishi lozim, degan fikr ham ilgari surilgan: "Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta, yo'qolur. Bas, bizg'a tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim vazifadir" [3, B. 16]. Adib so'zlariga diqqat qilsak, har bir til sofligi bilan ahamiyatli. Zamonasining eng muhim masalalaridan biri ham til masalasi ekanligini holda "hushyor millatlar" tilning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq sanashlarini, Turkistonda yashaydigan har bir millat o'z tilini saqlamog'i uqtiriladi.

Adib nevarasi, 30 yillar davomida Saidrizo Alizoda ma'naviy merosini saqlab kelayotgan Farhod Alizoda tomonidan bizga taqdim qilingan "Birinchi yil. Alifbe" va "Murosalot" darsliklarida ham til sofligini saqlash, nutq madaniyati, xat va maktub yozish qoidalari haqida batafsil ma'lumot bor.

"Birinchi yil. Alifbe" darsligi [4] muallifning ta'kidlashicha, "Turkiston ibtidoiy maktablarining birinchi sinf shogirdlari uchun tartib berilib, ikki hissag'a bo'lungondur". Adib birinchi bo'limda eski o'zbek yozuvidagi arab harflarining yozilishi, tovushlarning o'qilishi, turli belgilarning ishoratlarini belgilab beradi. Har bir tovushdan so'ng so'z birliklarining berilishi ham o'quvchilarga o'qishni osonlashtirgan. Masalan, "D" va "R"

harflarining yozilishdan so'ng Dor, dur, tor, tur, dolo, dutor, tolur, olur, turur kabi so'zlar o'qilishi mashq sifatida berilgan.

Darslikning ikkinchi bo'limida boshlang'ich sinf o'quvchilari zehniga munosib, kichik hikoya, she'r va ba'zi grammatik qoidalar berilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari arab grafikasini qabul qilgan vaqtda 28 ta harf mavjud bo'lib, harflarning katta bir qismi arab tilining maxsus tovushlarini ifodalashga xizmat qilgan. Ular mahalliy xalqning tovushlarini aynan ifodalaydigan harflar yo'qligi sabab, yana qo'shimcha kiritishga majbur bo'ladilar. Shunday qilib (پ چ ژ گ) eski o'zbek yozuvida 32 harfli alifbo paydo bo'lgan. Tabiiyki, Saidrizo Alizoda o'zbek tilidagi so'zlarning arab yozuviga moslangan variantini darsliklarida namoyon etadi. "Kitobning har ikki hissasida bolalar zehnini tashvishga solmas uchun, arabiy va forsiy tarkiblardan, mualliq va qorishiq jumalardan mumkin qadar parhiz qilingan" [5, B. 1] ligi ko'rinadi.

"Birinchi yil. Alifbe" darsligida pand-u nasihatga boy maqol, matallar ham berilganki, ular albatta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Sintaktik tuzilishiga ko'ra birikmaga teng birikmalar: tomning qulog'i, jo'gidek lofgo'y, ko'ngli qaro, ammamning buzovi;

Gapga teng frazeologizmlar: Hech kim o'z qotug'ini tursh demos. Mehmon mehmonni ko'rolmaydi. Er qotug' bo'lsa, hukuz hukuzdan ko'ror. Nima eksang, shuni o'radursan. Igna borchani tikor, lekin o'zi yolong'ochdur. Egri o'tur, to'g'ri gopur. Shakarni ko'p esang, shalg'am mazasi berur. Maslihatlik to'n qisqa bo'lmos. Ko'rpachangg'a qarab oyoq uzat. Oshing halol bo'lsa, ko'chada egin.

Aslida frazeologizmlar birikmalardan iboratdir. Ammo frazeologizmlarning o'ziga xos shakllanish jarayonlari ularni oddiy so'z birikmalaridan farqlanadi. Frazeologizmlarning shakllanishi lisoniy va nolisoniy omillar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini yuqoridagi misollar orqali bilish mumkin. Frazeologizmlarning paydo bulishi na shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma'naviy qarashlar, ikkinchidan lisoniy, ya'ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi tilning ichki konuniyatlariga-fonetik, leksik-semantik, grammatik talablarga buysundirilgan. Adabiy til, ayniqsa, uning lug'at tarkibi va frazeologik boyligi to'xtovsiz taraqqiy etadi, o'sadi va rivojlanadi, chunki "jamiyatda bo'ladigan turli-tuman o'zgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo bo'ladigan narsa-hodisalar uchun tilda maxsus atamalar bo'lishini taqozo etadi. Ana shunday ob'ektiv sabablar asosida tilda yangi-yangi so'z (leksema)lar, iboralar paydo bo'ladi, lug'at tarkibi boyib boradi. Albatta, tilda frazeologizmlarning yuzaga kelishi va barkarorlashishida ekstralisoniy omillar ham muhim ekanligini qayd etish lozim. Bu omillarning birinchisi til vakillarining u yoki bu hodisa, holat, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash bilan aloqador ehtiyojdir. Shu ehtiyoj tufayli tilda ko'plab turli ma'noli frazeologizmlar yuzaga kelgan.. Vaqt o'tgan sari yuqoridagi maqol va matallarning ayrim so'zlari o'zgarib borganligini kuzatish mumkin: tomning qulog'i-devorning qulog'i, tegirmon navbat iladur-tegirmon navbati bilan, muhabbat ikki ko'zda bo'lur-mehr ko'zda bo'lur, birovni izzat qilg'on o'zi aziz bo'lur-hurmat qilsang, hurmat ko'rasan, oshing halol bo'lsa, ko'cha boshida egin- oshing halol bo'lsa ko'chada egin, bir qo'ldan a'lo sado chiqmas- qars ikki qo'ldan chiqar. Asarlar davomida halq turmush sharoitidan kelib chiqib, tilimizda o'rtnashib qolgan frazeologizmlarni maktab darsliklariga kiritilishi bolalar tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, "Birinchi yil. Alifbe" darsligida atoqli otlar: Dovud, Po'lad, Yo'ldosh, Quldosh, Dorob, Boqi, Shodi, Tursun, Shokir, Bokirzoda, Mirzobirdi, Sharif, Mirzo Burhon, Fozil, Safar, Tahmuras, Ahmad kabi o'g'il bolalar ismlari uchraydi. E'tibor berilsa, bu ismlar turli millat vakillariga tegishli ekanligini ayon bo'ladi.

Joy nomlari: Eron, Yunon, Turkiya, Basra, Buxoro, Marg'ilon, Farg'ona, Paris

(Parij), Faronsa, Tehron, Yapun, Jopun (Yaponiya), Ispaniyo, Moskuvo, Qofqoz, Ovsroliyo, Chin, Italiyo, Pulsho, Finlandiyo kabi shahar va davlat nomlari berilgan. Boshlang'ich maktabning birinchi sinf o'quvchilari o'qishi uchun bunday murakkab joy nomlari biroz murakkablik qilar. Lekin jadid maktablariga geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlarni kiritib, o'quvchilar qiziqishini oshirganlar.

Sonlar: Turk tilida o'ttuz uch harf bor, Qurbon idi uch kun bo'lur, bir qadoq olti misqoldur, G'iyos otosidan to'qquz ming sum meros oldi, bir sojin uch gaz bo'lur, Xudo dunyoni olti kunda yorotdi, man qilaman o'ttuz, Tongrim qilodi to'qquz, ming yil yasha, ming yil o'qi, bir soat oltmish daqiqadur kabi birikmalar va gap tarkibida berilgan.

Samarqand va Buxoro shahar lahjalariga xos bo'lgan so'zlar: Tirak, birinj, murcha, jorub, tiryak, libos, buzov, go'sola, digar, xuro's, tursh, jo'gi, ori kabi so'zlar uchraydi.

Shevaga xos fonetik hodisalarga uchragan so'zlar ham bor: yog'mur, keturdi, tiloydi, qog'az, qoytmas, choqirodilor, irta va boshqalar. Ular adabiy til normalariga qat'iy amal qilingandan so'ng bugungi o'zgarishlarga uchragan holatda yozilmoqda.

Rus va Evropa tillaridan kirgan so'zlar: vogun, gimnoziyo, tilifun, tilig'rof, kolush kabi so'zlar o'sha davrda qanday eshitilgan bo'lsa, shunday holatda matn tarkibiga kiritilgan.

"Birinchi yil. Alifbe" darsligida ayrim grammatik qoidalar berilganki, ular egalik qo'shimchalarining yozilishi bilan bog'liq.

Bugungi kunda so'z tarkibida o'zgarishlarga uchragan ayrim misollarga e'tibor qaratamiz:

Man o'qugonman	Man o'qugon emasman
San o'qugonsan	San o'qugon emassan
Ul o'qugondur	Ul o'qugon emasdur
Biz o'qugonmiz	Biz o'qugon emasmiz
Siz o'qugonsiz	Siz o'qugon emassiz
Ulor o'qugonlar	Ulor o'qugon emasdurlar.

Saidrizo Alizodaning "Birinchi yil. Alifbe" darsligi 1917 yilda jadidchilik maktabining birinchi sinf o'quvchilari uchun eski o'zbek mumtoz tilining turkiy chig'atoy lahjasida yozilgan[6.] Darslikda arab yozuvidagi harflarning yozish shakllari, muttasila va munfasila, ya'ni arab grafikasidagi eski o'zbek tilida o'zidan oldin va keyin keladigan harflarga qo'shiladigan tovushlarning alohida ko'rinishlari, so'zning boshi, o'rtasi hamda oxirida yozish shakllari keltirilib, sodda so'zlar va qo'shma so'zlarning tuzilishiga oid misollar berilgan. Kitobning ikkinchi bo'limida keltirilgan zarbulmasal, qiziqarli kichik hikoya, maqol, pand-nasihatlilar yosh avlodning ta'lim va tarbiya olishlari yo'lida nihoyatda dolzarb va muhim ahamiyat kasb etgan.

Xat va maktub yozish usuli uzoq tarixiy davrlarga ega bo'lib, bu uslub yozuvning paydo bo'lishidanoq odamlar, qabilalar, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni anglash va mustahkamlash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Insoniyat yaratgan eng katta boylik-piktografik yozuvlar ham aslida kishilarning bir-birlariga ma'lumot etkazishlari uchun xizmat qilgan. Davlatlarning paydo bo'lishi natijasida, xalqaro siyosiy va diplomatik xatlarni yozish uslubi xalqlar va davlatlar o'rtasidagi ma'naviy-madaniy, siyosiy va diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yish va mustahkamlash uchun muhim mavqega ega bo'lgan.

Saidrizo Alizoda o'z umri davomida xat yozish uslubida nihoyatda iste'dodli kotib bo'lganligini uning bu mavzuda yozgan "Murosalo" majmuasidan bilib olsa bo'ladi[7, B. 88]. U ushbu xatlar majmuasida oila a'zolari, do'stlari, savdo-tijorat kishilari va idora ahli o'rtasidagi muammolar, munosabat, muomala va muddaolarni bayon etish maqsadida yozilgan maktublar hisoblanadi. Maktub yozish qonun-qoidalarining tarixiy bosqichlari tilshunoslik fanida rasmiy-idoraviy uslubning shakllanishiga turtki bo'ldi.

Saidrizo Alizodaning "Murosalo" majmuasi "Kitobi luzum" (Lavozimot kitobi),

"Ishorati a'jomiya" (So'zsiz ishoralar) va "Farhangi kitobi "Murosalo" (Murosalo kitobining lug'ati) nomli qismlardan tarkib topgan bo'lib, unda kotiblik mahorati, kitob tayyorlash usuli, xat yozish qobiliyati bayonning zarurati, kitobiy belgilarning, ya'ni tinish hamda turli naqshiy belgilarning ishlatilishi, so'z san'ati mahorati, so'z balog'ati va fasohati, lug'at tuzish tartibi haqida yozilgan. Shu bilan birga Sharqda qadimdan yuqori darajada bo'lgan muoshirat (etiket) odobi, ota-ona, farzand orasidagi maktublar tartibi haqida misollar yordamida izoh qoldirilgan.

"Murosalo" darsligida ishorati a'jomiya, ya'ni belgilar majmui berilgan. Unda tinish belgilarining ishlatilishi haqida davr nuqtai nazari kelib chiqib xulosalar berilgan. "Belgilar majmui to'qqiztadir: nuqta (.), sakta (vergul) (,), saktali nuqta (nuqta vergul) (;), ikki nuqta (:), nido ishorati (undov belgisi) (!), so'roq belgisi (?), foriq (ayrinish) (-), mu'tariza (qavsayn) (), mumayiza (qo'shtirnoq) (""") [8, B.88]. "Murosalo" darsligi Saidrizo Alizoda tomonidan 1928 yilda yozilgan bo'lib, adib tomonidan chop ettirish uchun Lohur shahri matbaasiga topshirilgan. Darslikning taqdiri ancha vaqt noma'lum bo'lib, nihoyat 1948 yilda toshbosma usulida chop etilgan.

Aslida Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan 1908 yilda yozilgan, qo'lyozma sifatida jadid maktablarida o'qitilgan, 1914 yilda nashr qilingan "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar kitobi") darsligida ham xat va maktublar yozish an'anasi hamda tinish belgilarining qo'llanishi haqida ma'lumot bor. Unda ham 12 ta belgining yozilishi va matnda qay holatda kelish vazifalari bayon etilgan [9, B. 31].

Alomati suol (?), Alomati nido, taajjub va xitob (!), Alomati mu'tariza (), Alomati mumayyiza (<< >>), Iki so'zni farq qilaturgon alomati (-), Alomati murodafat, ya'ni ikisi bir ma'noda (q), ozgina turmoq uchun (,), Bayon va tafsil uchun (:), Notamom so'zlar, kinoya, mubham va mahfuzlar alomati (...), So'zni oziri yoinki vaqfi tom alomati(.

Abdurauf Fitrat 1926 yilda yozgan tilshunoslikka oid "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Nahv" darsligida tinish belgilari haqida ma'lumot berib, ularning soni 12 ta ekanligini qayd etgan. Nuqta (.), Bir tinish belgisi (;), Yarim tinish belgisi (,), So'rash belgisi (?), Undash belgisi (!), Qo'sh nuqta (:), Tirnoqlar ("""), Yoilar (), To'rtko'l yoilari (| |), Ulkan yoilar ({}), Chiziq (-), Nuqtalar (...).

Umuman olganda, H. G'oziev "O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti" [10] kitobida oktyabr to'ntarishidan oldin va 1925 yilgacha bo'lgan davrda qo'lyozma va toshbosma asarlarda 36 turdagi turli tinish belgilar, kitobiy ishoralar qo'llanilganligini qayd qiladi. Ularning juda ko'plari kitob bezaklari uchun xizmat qilib, matnlarni bir-biridan ajratish, she'riy parchalarga ishlov berish kabi vazifalarni o'tagan. Yarim oy, yulduz, quyosh, turli naqshiy ko'rinishlar shular jumlasidandir.

Hozirgi tinish belgilarining soni o'nta ekanligi haqidagi ilk ma'lumot 1925 yilda yozilgan Munavvarqori Abdurashidxonov, Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hammualliflikdagi uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlig'i" va Shorasul Zununning "Til qoidalari" kitoblarida qayd qilingan.

Saidrizo Alizoda yozma nutqning zaruriy qismi hisoblangan tinish belgilari haqidagi ma'lumotlari bugungi kundagi ko'rinishlariga o'xshash ekanligini kuzatish mumkin. Darslikda tinish belgilarining qo'llanishini kichik hikoyalar tarkibida berilishi, albatta birinchi sinf bolalari xotirasida saqlanib qolinishida xizmat qilgan. "Mag'rur g'oz" matniga e'tibor qaratamiz:

Bir g'oz havzda yurub, o'z o'zig'a oytdi:

-Men qandoy ajoib bir qushdurman?! Erda yuroman, suvda yuroman, havoda uchoman, dunyoda mandek bir qush yo'q, man borcha qushlarning podshohidurman!"

G'ozning bu so'zlorini bir turno eshitib, oytdi:

-"Behuda mundoy moqtonma, otdek yuguro, boliqdek yuzo, yo lochin kabi ucho

olursan?"

5 ta tinish belgilarining vazifasiga qarab o'z joyida qo'llanishilishi Saidrizo Alizodaning nafaqat bilimdon tilshunos sifatida, balki mohir pedagog sifatida ham namoyon etadi.

"Murosilot" kitobining so'nggidagi 912 ta so'zdan iborat lug'atida, arab, fors tilidagi so'zlarning o'zbek tilidagi varianti berilgan. Bu ham o'sha davra chetdan so'z qabul qilish yoki shu paytgacha tilimizda saqlanib qolgan arab va fors-tojik tillaridan olingan so'zlarni isloh qilish uchun muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbek tili leksikografiyasining taraqqiy etishida o'ziga xos o'ringa ega.

Saidrizo Alizoda poliglot sifatida ham nom qoldirgan. U 1919 yilda Samarqandda nashr etilgan "Shu'lai inqilob" jurnalining asoschisi va noshiri sifatida namoyon bo'ladi. Jurnalning 91 ta soni chiqqandan keyin turli bahonalar bilan sovet hokimiyati tomonidan yopiladi. Hukumatga bir necha marta qilingan murojaatdan so'ng 1924 yilda "Ovozi tojik" gazetasi tashkil etiladi va adib uning birinchi muharriri sifatida faoliyat olib boradi.

1925 yildan boshlab yahudiy va tojik tillarida chop etilgan "Ro'shnoi" gazetasida ham maqola va xatlari bilan ishtirok etadi. Samarqand va Buxoro shaharlarida yashaydigan yahudiy millatiga mansub kishilarning asriy orzulari ushaladi - ular o'z ona tillarida maqola o'qiy boshlaydilar. "Bobomning yahudiy tilini mukammal bilishi, keyinchalik uni qamoqda ekanligida ko'p asqotgan, - deydi adibning nevarasi Farhod Alizoda. - Qamoqxona rahbari yahudiy bo'lgani bilan o'z ona tilini bilmagan. Bobom esa unga yahudiy tilini o'rgatgan. Buning evaziga katta mukofotlar olgan. Issiq kiyim, oziq-ovqat bilan ta'minlangan. Eng asosiysi, Samarqandga maktub yo'llash imkoniyati berilgan". Til bilish, hatto, eng mudhish zamon va makonda ham zarur ekanligining isboti. Saidrizo Alizoda ana shu imkoniyatdan foydalanib, 200 ga yaqin maktublar jo'natgan. Ularning ayrimlari she'riy janrda bo'lib, unda uzoq Sibir o'lkalaridagi azob-uqubat, nohaq jazo, xullas, zindondagi haqiqiy holat haqida yozilgan. She'rlarning ayrimlari Hayot Ne'mati Samarqandiyning "Si pehri orzu" tazkirasiga kiritilgan.

Saidrizo Alizodaning tarjima asarlari ham o'zbek tilining boyishida katta xizmat qiladi. Adib "Kapitan qizi", "Boris Godunov", "Dubrovskiy", "Evgeniy Onegin", "Tirilish", "Revizor", "Ochilgan qo'riq", "Tsement", "Po'lat qanday toblandi" asarlarini ruschadan o'zbek, fors, tojik tillariga o'giradi, frantsuzchadan Moler, Mopassan, inglizchadan Epton asarlari tarjimasiga qo'l urgan. Hatto Qur'oni Karimning ayrim oyatlarini frantsuz tiliga tarjima qilganligi haqida ma'lumotlar bor. Ibn Sino, Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy, Navoiy asarlaridan namunalarni rus tiliga tarjima qilgani ham tahsinga loyiq ish edi.

Til siyosati jarayonida muhim iz qoldirgan Saidrizo Alizodaning faoliyati bu bilan cheklanmaydi. Uning qalamiga mansub 500 ga yaqin maqolalari dunyoning 12 davlatidagi gazeta va jurnallarida chop etilganligini hisobga olsak, hali tadqiq qilinishi zarur bo'lgan jihatlar ko'pligi ayon bo'ladi. Saidrizo Alizodaning "Tanlangan asarlari" ham nashrdan chiqqan emas. Ular tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, geografiya, siyosat, etnografiya, madaniyat kabi o'nlab sohalarga yangilik kiritishi aniq. Buning uchun adib asarlarini bir joyga to'plab, nashr qilish maqsadga muvofiq. Bu ilmiy ishlarga tojik tilshunoslari ham sa'y qo'shishsa, o'zbek va tojik tillarining rivojlanish bosqichi haqida yangi bir xulosalar kelib chiqar edi.

Iqtiboslar/Snosky/References

1. Саидризо Ализода. Биринчи йил. Алифбе. Нашрга тайёрловчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Чориев Н.К. Самарқанд, Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти, 2022. Б-7. (Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Alifbe. Nashrga tayyorlovchi, mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi Choriyev N.K. Samarqand, SamDChTI nashriyoti, 2022. 7-b).
2. Саидризо Ализода. Чақмоқдек чақнаган умр. Самарқанд, Морозов, 1992. Б-2. (Saidrizo Alizoda. Chaqmoqdek chaqnagan umr. Samarqand, Morozov, 1992).
3. Қосимов Б. Карвонбоши / Маҳмудхўжа Бехбудий. - Тошкент: Маънавият, 1997. - Б.16. (Qosimov B. Karvonboshi / Mahmudxo'ja Behbudiy. - Toshkent: Ma'naviyat, 1997. - B. 16).
4. Саидризо Ализода. Биринчи йил. Нашриёти ширкати "Зарафшон"-и Самарқандда. "Ғозоруп" матбаасида таъб этилди. 1917. (Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Nashriyoti shirkati "Zarafshon" - i Samarqandda. "G'ozoruf" matbaasida tab etildi. 1917).
5. Саидризо Ализода. Биринчи йил. Нашриёти ширкати "Зарафшон"-и Самарқандда. "Ғозоруп" матбаасида таъб этилди. 1917. Б-1. (Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Nashriyot shirkati "Zarafshon" - i Samarqandda. "G'ozoruf" matbaasida tab etildi. 1997. 1-b).
6. Саидризо Ализода. Мурасалот. Мактублар. Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти, 2022. Масъул муҳаррир: Чориев Н.К. (Saidrizo Alizoda. Mursalot. Maktublar. Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022. Mas'ul muharrir: Choriyev N.K).
7. Ушбу китобнинг қўлёзма нусхасини адибнинг невараси Фарҳод Ализода бизга тақдим қилдилар. Биз ишимизга асос қилиб, Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти томонидан 2022 йилда нашр этилган китобдан фойдаландик. Масъул муҳаррир: Чориев Н.К. Б-88 (Ushbu kitobning qo'lyozma nusxasini adibning nevarasi Farhod Alizoda bizga taqdim qildilar. Biz ishimizga asos qilib, Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti tomonidan 2022 yilda nashr etilgan kitobdan foydalandik. Mas'ul muharrir: Choriyev N.K. B-88).
8. Саидризо Ализода. Мурасалот. Мактублар. Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти, 2022. Масъул муҳаррир: Чориев Н.К. Б-88. (Saidrizo Alizoda. Mursalot. Maktublar. Samarqand: Samarqand davlat chet tillar institute nashriyoti, 2022. Mas'ul muharrir: Choriyev N.K. 88-b).
9. Бехбудий Маҳмуд Хўжа. الاطفال كتابت (Китобат ул-атфол). - Самарқанд: Типо.литография. Т-во "Б.А.Газаровъ", 1914.- 31 б. Араб ёзувида, ўзбек тилида. (Behbudiy Mahmud Xo'ja. (Kitobat ul - atfol). - Samarqand: Tipolitografiya. T-vo "B.A.Gazarov", 1914. - 31-bet. Arab yozuvida, o'zbek tilida).
10. Ҳ. Ғозиев. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. Ўзбекистон ССР. Фан. 1979. (H.G'oziyev. O'zbek punktuatsiyasining tarixiy tarqqiyoti. O'zbekiston SSR. Fan. 1979).